

Matyakubova
Zilola
Xalilullayevna

Alfraganus universiteti
o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi I bosqich
magistranti



YUSUF XOS HOJIB

«QUTADG'U BILIG» DOSTONIDA BADIY SAN'AT NAFOSATI

*Boshdan oxirgacha donolaz so'zi,
Go'yoki tizilgan marjondek o'zi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari va undagi badiiy tasvir vositalari haqida fikr bildiriladi. Maqolada ijodkor asridan namunalar keltiriladi, baytlardagi badiiy san'at vositalari tahlil qilinadi. Ijodkor mahorati haqida alohida to'xtalib o'tiladi, so'z san'ati va uning qudrati tahlil qilinadi. «Qutadg'u bilig» asarining o'zbek va jahon adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: «Qutadgu bilig», tashbeh, talmeh, husni ta'lil, intoq.

KIRISH

Yusuf Xos Hojib iste'dodli shoir, davlat arbobi, donishmand adib bo'lib, undan bizga yagona meros «Qutadg'u bilig» asarigina yetib kelgan. «Qutadg'u bilig» «Qutga, ya'ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim» demakdir. Bu asarni yozish uchun ulug' bobokalonimiz uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rgan. Bunday yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan axloqiy-ma'rifiy, pandnoma asarni yaratishda adib «tug'ilgan elidan chiqib borgani»¹, ko'plab o'lkalarga safar qilgani, turli adabiy-madaniy yodgorliklarni o'rganganini asarning o'zida ta'kidlab o'tadi. Ijodkor bu asarni yaratishda juda katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, yuksak badiiy did, o'ta sinchkovlik, so'zlardan mohirona foydalanish kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi va deydi:

*Bug'raxon vaqtida yozildi ayon,²
Yana xon tilicha etildi bayon.
Bu yanglig' kitobni kim aytgan azal,
Keyin ham kim aytar bu qadar go'zal?!*

TAQDQIQOT

Yusuf Xos Hojib asarni yaratishda chiroyli dalillar bilan asar yaratilish davri, vaqti, maqsadi va tarixiy jarayonni o'quvchiga tushunarli tilda sodda va ravon bayon etadi. Asar 1069–1070-yillar oralig'ida yozilgan bo'ib, hijriy 469-yilga to'g'ri keladi. Bu haqda ijodkor shunday deydi:

*Bu so'zlarni tugal o'n sakkiz oyda aytib bo'ldim,³
Tanladim, farqladim, so'z terib to'pladim...
... Barini yozdim, tartib berdim,
Bu kitob Qashg'ar elida tamom yozildi..
... To'rt yuz oltmish ikkinchi yil edi,
Men jonni koyitib ushbuni so'zladim...
Keraksiz so'zni yashir, chunki u ziyon qiladi ...*

Yuqoridagi baytlarni bitishda adib tarixiy sana va tarixiy joy nomini keltirib o'tadi. U bu bilan mumtoz adabiyotimizdagi talmeh (ar. «chaqmoq chaqilishi», «bir nazar tashlash»)⁴ san'atini qo'llaydi. Asarning boshqa joylarida ham mumtoz adabiyotimizning juda ko'plab badiiy tasvir vositalarini uchratishimiz mumkin:

*Biri to'g'rilikka tayanch – Adolat,⁵
Biri Davlat erur, u qutlug' g'oyat.
Uchunchi – ulug'lik Aql ham Zako,
To'rtinchi – Qanoat erur bebaho...*

Adib keltirilgan dastlabki baytda **adolat**, **g'oyat** so'zlarini, keyingi baytda esa **zako** va **bebaho** so'zlarini o'zaro qofiyadosh qilib oladi. Bu bilan Yusuf Xos Hojib ham mumtoz qofiyaning mujarrad (ar. «yakka, yolg'iz, tanho»)⁶ turidan mohirona foydalanadi, ham aynan shu so'zlarini keltirish orqali tanosub (ar. «jamlovchi, umumlashtiruvchi so'z»)⁷ san'atini qo'llaydi.

Asarning badiiyati nihoyatda keng. Unda go'zal tashbehlar, (ar. «o'xshatish»)⁸ hayotiy va lo'nda istiora (metafora)⁹ va iboralardan keng foydalanilgan. Boshdan oxirigacha asar pandnoma tarzida yozilganligi uchun unda har bir bayt qiyoslash, chog'ishtirish, jonlantirish bilan boyitiladi:

*Qur arslonga o'xshar bu beklar o'zi,¹⁰
G'azabga minsalar, kesarlar boshni.*

Yoki:

*Til eshikda, uyda yotgan arslon kabidir,¹¹
Ey, uy egasi, ehtiyot bo'lmasang bu vahshiy boshingni yeydi.*

Boshqa o'rinlarda ham ijodkor badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalanib ketgan:

*G'olib keldi qishdan bahor chiroyi,¹²
Yangidan qurildi bahorning yoyi.
Quyosh qaytdi yana kelib o'rniga-
Baliq quyrug'idan Qo'zi burniga.*

Keltirilgan baytlarda chiroyli dalillash – husni ta'lil(ar.)¹³ singari badiiy san'atlar ko'rinadi. Bunda go'yoki qish bilan bahor fasli jang qiladi-yu, bahor yengadi (jonlantirish), iliq kunlar boshlanib, quyosh osmonga chiqib olajagini ko'rsatadi. «Baliq» va «Qo'y» burjlari bir-biri bilan tutashib, yil tugab, yangi yil – yangi kun boshlanganiga ishora qilinadi. Bunda «Baliq burji» burjlarning eng oxirgisi bo'lib, undan keyin yil tugagan hisoblanadi. Shunda yangi kun, yangi yil kirib keladi bu esa burjlardan «Qo'zi burji»ga to'g'ri keladi. Asar yozilish davri ham o'z navbatida shu orqali tilga olinib ketiladi. Ayniqsa, «Qutadg'u bilig»da bahor fasli o'ziga xos nafislik bilan tasvirlanadi, har bir baytda yangi badiiy vositalardan foydalaniladi:

*... Qo'shiq aytdi go'zal kaklik tog' ora¹⁴
Qizil og'zi qondek, qoshi qop-qora.
Quloqqa chalinari qora zog' sozi,
Go'yo nido solgan qizdek ovozi...*

Yuqoridagi baytlarda bir vaqtning o'zida tashxis, tashbeh, intoq (nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash)¹⁵ kabi she'riy san'atlarni kuzatamiz. Tazod – qarshilantirish san'atiga asoslangan quyidagi baytlardan esa bir-biriga zid ma'noli so'zlardan adib qanday mahorat bilan foydalanganini ko'ramiz:

*Tirik oxir o'lar qora yer quchib,¹⁶
Nom ezgu esa-chi, ketarmi o'chib?!*
*Ikki xil nom qolar tilda begumon,
Biri yaxshiligu, birisi-yomon.¹⁷
Dono maqtov olar, nodon-chi so'kish.
O'zing o'yla, senga ma'qul qaysi ish ?!*

Adib asarda ezgu niyatlarni targ'ib etar ekan, o'z fikrini o'quvchiga tushunarli va tafakkuriga yetib borishini maqsad qilgani holda quyidagi fikrlarni keltiradi:

*Yomonlik go'yo o't, yondirar, yoqar.¹⁸
O'tishga kechim yo'q: u soy, tez oqar.*

Bu o'rinda o't, yoqmoq, yonmoq so'zlaridan foydalanib, «tanosub» (ar. mos, mutanosib, daxldor)¹⁹ badiiy san'at vositasini qo'llab ketadi. Mumtoz adabiyotimizdagi badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanib, insoniyatga muhim bo'lgan tushunchalarni so'z o'yinlari orqali inson qalbiga singdirmoqchi bo'ladi.

XULOSA

O'zbek adabiyotining nodir durdonasi bo'lmish «Qutadg'u bilig» dostoni Yusuf Xos Hojibning so'z qudrati nechog'lik buyuk ekanligini ko'rsatuvchi go'zal asardir. Ijodkor «Men turkcha sozlarni yovvoyi tog' kiyigi kabi bildim. Shunga qaramay, ularni avaylab-asrab qo'lga o'rgatdim»²⁰ deb yozadi. Asarning har bir sahifasida ezgulik, Vatanga muhabbat, sadoqat, chin insoniy fazilatlar tarannum etiladi. Komil inson haqida gapirilar ekan, kamolotning qator belgilari sanab o'tiladi, chin inson o'z manfaatlaridan, shaxsiy

istaklaridan boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la olishi ta'kidlanadi. «Qutadg'u bilig» asari mumtoz adabiyotimizning va jahon adabiyoti durdonalaring eng qimmatli asaridir

QARANG:

1. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 3-bet.
2. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 9-bet.
3. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 3–4-betlar.
4. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 11-bet.
5. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 227-bet.
6. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 242-bet.
7. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 232-bet.
8. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 226-bet.
9. «ADABIYOT». S. Matchonov, Sh. Sariyev. – Toshkent, 2010. – 65-bet.

10. «O'zbek adabiyoti» 9-sinf. Toshkent: «Yozuvchi», 2000. – 132-bet.
11. «O'zbek adabiyoti» 9-sinf. Toshkent: «Yozuvchi», 2000. – 132-bet.
12. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 12-bet.
13. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 229-bet.
14. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 12-bet.
15. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 226-bet.
16. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 12-bet.
17. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 235-bet.
18. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 22-bet.
19. «Aruz va Mumtoz poetikaga kirish». Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022. – 232-bet.
20. «Qutadg'u bilig». – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 20-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qutadg'u bilig. Yusuf Xos Hojib. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019.
2. Aruz va Mumtoz poetikaga kirish. Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: «Tamaddun», 2022.
3. O'zbek adabiyoti, 9-sinf. – Toshkent: «Yozuvchi», 2000.
4. «ADABIYOT». S. Matchonov, Sh. Sariyev. – Toshkent, 2010.
5. «O'zbek adabiyoti». Majmua. – Toshkent: «O'qituvchi», 1995.

